

## NAVOIY G‘AZALLARIDA KO‘NGUL FALSAFASI

Ataniyazova Mubarak,

f.f.f.d., dotsent

Qoraqalpoq davlat universiteti

ataniyazova@mail.ru

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada so‘z mulkining sultoni Alisher Navoiyning “Badoye’ ul-vasat” devoniga kiritilgan “Ne ishq ediki, adam ayladi vujudimni...” va “Ey ko‘ngul, men tarki ishq ettim, vale fosh etmagil...” g‘azallarining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari, qofiya tizimi va obrazlar silsilasi tadqiq etilgan. G‘azallardagi tasavvufiy fano va baqo tushunchalarini, lirik qahramonning ruhiy-ma‘naviy yuksalish bosqichlarini matn tahlili orqali ochib beriladi. Maqolada tazod, talmih, tashbih, ishtiyoq, tashxis va tanosub kabi badiiy san’atlarning qo‘llanish mahorati sarlavha ostidagi baytlar misolida tizimli yoritilgan. Shuningdek, ko‘ngil, ko‘z, soqiy, tosh va faqr yo‘li kabi mumtoz obrazlarning ramziy va majoziy ma‘nolari falsafiy jihatdan talqin qilingan.

**Kalit so‘zlar:** Alisher Navoiy, g‘azal, poetika, badiiy san‘at, qofiya, lirik qahramon, ko‘ngil obrazi, tark, faqr yo‘li.

**Abstract.** This article examines the ideological and artistic features, the rhyme system, and the system of imagery in the ghazals “Ne ishq ediki, adam ayladi vujudimni...” and “Ey ko‘ngul, men tarki ishq ettim, vale fosh etmagil...” from “Badoye’ ul-vasat”, a diwan by the sultan of lyric poetry, Alisher Navoiy. Through textual analysis, the Sufi concepts of fano (annihilation) and baqo (subsistence), alongside the stages of the lyrical hero's spiritual and moral evolution, are revealed. The article systematically illustrates the skillful application of such poetic devices as tazod (antithesis), talmih (allusion), tashbih (simile), ishtiyoq (derivation), tajnis (puns), and tanosub (harmony) using specific couplets. Furthermore, the symbolic and metaphorical meanings of classical motifs and images, including the heart (ko‘ngil), the eye, the cupbearer (soqiy), the stone, and the path of spiritual poverty (faqr), are philosophically interpreted.

**Keywords:** Alisher Navoiy, ghazal, poetics, poetic devices, rhyme, lyrical hero, motif of the heart, renunciation (tark), path of faqr.

**Аннотация.** В данной статье исследуются идейно-художественные особенности, система рифмы и система образов газелей «Ne ishq ediki, adam ayladi vujudimni...» и «Ey ko‘ngul, men tarki ishq ettim, vale fosh etmagil...», вошедших в диван «Бадоеъ ул-васат» лирической поэзии Алишера Навои. Посредством текстуального анализа раскрываются суфийские концепции, а также этапы духовно-нравственного очищения и возвышения лирического героя. В статье на примере конкретных байтов системно освещается мастерство применения таких поэтических приемов и художественных искусств. Кроме того, дается философская интерпретация символических и метафорических значений классических образов-мотивов.

**Ключевые слова:** Алишер Навои, газель, поэтика, поэтическое мастерство, рифма, лирический герой, образ сердца, тарк.

**Kirish.** Alisher Navoiy lirik merosining gultoji hisoblangan “Xazoin ul-maoniy” kulliyoti, xususan, uning ikkinchi devoni “Badoye’ ul-vasat” tarkibidagi g‘azallar o‘zining falsafiy teranligi va badiiy mukammalligi bilan ajralib turadi. Navoiy g‘azaliyotida ishq falsafasi oddiy insoniy tuyg‘ular chegarasidan chiqib, ilohiy ma‘rifat, nafsni jilovlash va qalbni poklash vositasi sayru suluk darajasiga ko‘tariladi. Bugungi kunda mumtoz matnlarni shunchaki o‘qish emas, balki ularning poetik strukturasi, badiiy san’atlar tizimi va qofiya san’atini chuqur tahlil qilish adabiyotshunoslikning eng dolzarb vazifalaridan biridir.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Alisher Navoiy lirik merosini tadqiq etish o'zbek adabiyotshunosligida boy an'anaga ega. Ushbu maqolada matniy asos sifatida Alisher Navoiyning "To'la asarlar to'plami" (2013) uchinchi jildi xizmat qildi. G'azallardagi badiiy san'atlar, obrazlar mohiyatini ochishda Yo.Is'hoqovning "Navoiy poetikasi" (1983) hamda "So'z san'ati so'zligi" (2014) tadqiqotlariga tayanildi. G'azallarning musiqiy tabiati, tahlilga tortilgan matnlarning aruziy xususiyatlarini belgilashda A.Hojiahmedovning fundamental asarlari ("Mumtoz badiiyat malohati", 1999; "Navoiy aruzi nafosati", 2006; "O'zbek aruzi lug'ati", 1998) nazariy asos bo'ldi. Shuningdek, g'azal matnlaridagi takrir va ohangdorlik tizimi A.Qayumovning "Dilkusho takrorlar va ruhafzo ash'orlar" (2014) asari metodologiyasi asosida lirik qahramonning ruhiy yuksalishi bilan bog'liq holda baholandi.

Matndagi tasavvufiy ramzlar (*fano, baqo, zunnor, faqr, tark*) hamda arxaik birikmalarning lingvo-poetik qatlamlarini to'g'ri talqin qilishda Berdak Yusuf (2010), J.Lapasov (1994) hamda M.Ataniyazova (2021) tomonidan nashr etilgan mumtoz adabiyot va istilohlar lug'atlaridan samarali foydalanildi. Mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, Navoiy poetikasi keng o'rganilgan bo'lsa-da, badiiy san'atlar, qofiya tizimi va tasavvufiy obrazlar evolyutsiyasini yaxlit tahlil qilish ehtiyoji hamon dolzarbligini saqlab qolmoqda.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ushbu tadqiqot maqolada ushbu ilmiy metodlar qo'llandi: matniy-filologik va leksik tahlil metodi: G'azal matnlaridagi tasavvufiy ramzlar, arxaik va majoziy ifodalarning (*adam, pud, zunnor, faqr, tark*) leksik-semantik qatlamlari mumtoz adabiyot lug'atlari asosida sharh qilindi. Strukturaviy-poetik tahlil: G'azallarning vazn tabiati, qofiya tizimi hamda radiflarining poetik qurilmadagi o'rni Yo.Is'hoqov va A.Hojiahmedovning she'rshunoslikka oid nazariy qarashlari asosida tizimli tadqiq etildi. Konseptual-semantik tahlil: Matndagi badiiy san'atlarning (*raddi matla', tardi aks, tazod, ishtiyoq, tashxis, tanosub*) baytlar mantig'ini shakllantirishdagi vazifalari hamda lirik qahramon ruhiyatidagi evolyutsion jarayonlar bilan bog'liqligi ilmiy jihatdan asoslandi.

**Tadqiqot tahlili va natijalari.** "Badoye' ul-vasat" devonining Lom harfining lub'atlarining latoyifi "Badoye'"din, deb ataluvchi qismida 29 ta g'azal o'rin olgan. Shulardan uchtasi Ey ko'ngul, deb boshlanadi, oxirgi ikkitasi Ko'ngul radifli g'azallardir. Qolgan g'azallarda ham misralarning ma'lum joylarida ishtirok etadi. Shulardan 598-g'azalni ko'rib chiqamiz [1. 603-sahifa]. G'azal aruz vaznining ramali musammani mahzuf bahrida yozilgan.

G'azal an'anaviy yetti baytdan iborat, radifsiz – muraddaf g'azal. Qofiyalanishiga ko'ra oddiy g'azal, yani *vujudimni – dudimni; budumni; pudumni; sudimni; sujudimni; shuhudimni; vujudimni* so'zlari qofiyani tashkil qilgan va raviv vazifasini so'zlar o'zagidagi *d* tovushi bajarmoqda, demak, a – a; b – a; v – a; d – a; s – a; e – a; g – a. G'azal ishqiy mavzuda, ishq obrazi orqali tasavvufiy-falsafiy g'oyalardan biri bo'lgan komillik g'oyasini badiiy talqin qiladi.

*Lugʻat*

Adam – yoʻqlik, mavjud boʻlmaslik.

Bud – borliq, bor narsa, mavjudlik.

Dud – tutun. (Ishq oʻtida yonayotgan koʻngil oh-u figʻonining ramzi).

Mustagʻraq – gʻarq boʻlgan, butunlay choʻmgan, berilgan.

Mushohada – koʻrish, kuzatish, tomosha qilish.

Nabud – yoʻqlik, bor boʻlmagan.

Nukta – nozik maʼno, sirli gap.

Pud – arqoq (toʻqilgan matoning koʻndalang iplari).

Shuhud – guvohlik berish, koʻrish, idrok etish.

Soiqa – chaqmoq, yashin.

Sujud – sajda qilish, yerga bosh qoʻyish.

Zunnor – belbogʻ. Ishqiy sheʼriyatda – maʼshuqaga boʻlgan sadoqat ramzi.

*Ne ishq ediki, adam ayladi vujudimni?*

*Chu urdi soiqa, gardungʻa chekti dudimni.*

Matlaʼda oshiqning moddiylikdan ruhoniylikka oʻtganligi mubolagʻali tashbih qilingan. Birinchi misra gʻazalning oxirida aynan takrorlanishi natijasida Raddi matlaʼ sanʼatini yuzaga chiqargan, natijada gʻoyaning yaxlitligi taʼminlangan.

*Ne nukta bud-u nabudumdin aytoyinkim, ul*

*Nabud qildi fano oʻti birla budumni.*

Ikkinchi baytda bud – nobud – fano – bud tushunchalarini takrorlab qarshilantirish orqali lirik qahramon maʼnaviy yuksalishdagi holatini tasvir etgan. Uchunchi baytda tashbih sanʼatidan foydalanish vositasida vujud matoga, hijron esa uni tituvchiga oʻxshatish qilingan:

*Agar shikof esa koʻksun yaqo kibi, ne ajab,*

*Ki hajr bir-biridin uzdi tor-u pudumni.*

Toʻrtinchi baytda ham takrirning oʻziga xos koʻrinishi mavjud: sudu ziyon; ziyonu sud – yaʼni tardi aks sanʼatidan foydalanish orqali oshiqning ruhiy yuksalishida oʻziga xos maqomga erishilgani maʼlum boʻladi, lirik qahramon dunyoviy gʻamlardan uzildi:

*Bu yoʻlda sudu ziyondin takallum etmangkim,*

*Tugatti ishqida savdo ziyon-u sudumni.*

5-baytda oshiq beliga zunnor bogʻladi, yaʼni tasavvufiy maʼnoda sadoqat kamarini beliga bogʻladi, deyish mumkin. But esa ilohiy jamol obrazi boʻlib kelmoqdaki, oshiq oddiy dindor yoki zohid emas, balki haqiqiy ishq yoʻlidagi bir obraz, deb taʼriflanmoqda.

*Chu ishq kufri aro belga bogʻladim zunnor,*

*But ollida yana ayb aylamang sujudimni.*

6-baytda lirik qahramon ilohiy jamolni shu darajada mushohada qilganki, natijada jamol bahrida gʻarq boʻlganligi mubolagʻa qilinadi, endi uning xayolini hech qanday hajr

tortib olamaydi, ya'ni oshiq botiniga hech qanday zohir yoki dunyoviy g'alvalar ta'sir qilolmaydi:

*Yuzung mushohadasi qilmish o'yla mustag'raq,*

*Ki hajr salb qila olmas ul shuhudimni.*

G'azal maqta'sida yuqorida ta'kidlaganimizdek raddi matla' sanati orqali oshiq o'zining butkul ishqqa aylanganligini ta'kidlashga erishilgan:

*Navoiy o'z din asar topmon o'lg'ali oshiq,*

*Ne ishq ediki, adam ayladi vujudimni.*

Matn ustida ishlashda mumtoz asarlar tarkibida keladigan ramzlar, badiiy san'atlar, istilohlarni talqin qilishda izohli lig'atlardan foydalanish estetik tassavurning boyishiga, uni chuqurroq anglashiga, shuningdek, badiiy tahlil bo'yicha ko'nikma va malakalarni hosil qilishiga yordam beradi.

Alisher Navoiy so'zning lug'aviy, uslubiy imkoniyatlaridan keng foydalanish bilan birga yanicha talqinlarini ham matnda ilgari surgan. O'zbekcha so'zlar bilan birga forsiy va arabcha so'zlardan ham unumli foydalangan, tilning ifoda doirasini kengaytirgan. Musiqiylikni ta'minlovchi vositalardan vazn, qofiya, radif, badiiy tasvir vositalari bilan birga tilning fonetik vositalaridan ham qo'llanganligining guvohi bo'lamiz.

Keyingi misolimiz *Ey ko'ngul*, deb boshlanuvchi *Etmagil* radifli 365-g'azali an'anaviy yetti baytdan iborat, qofiyalanishiga ko'ra oddiy g'azal [1. 370-sahifa]. Mavzusiga ko'ra orifona mazmundagi Ilohiy sir haqida bo'lib, oltita o'rinda nido sana'tidan foydalangan: *Ey ko'ngul*, *Ey ko'z*, *Soqiyo*, *ey mashshota*, *ey rafiq*, *Ey Navoiy* ism so'zlaridan foydalanilgan. Bu g'azalda ham Alisher Navoiyning yuksak badiiy mahorat egasi ekanligining guvohi bo'lamiz.

### **Lug'at**

*Rishtai mehr* – qalbni dunyoga bog'lab turuvchi ko'rinmas hissiy ip; oshiqni mashuqaga, bandani Haqqa bog'lab turuvchi rishta.

*Mashshota* – bezatuvchi, soch tarovchi, pardozi; dunyo go'zalliklarini bezab ko'rsatuvchi, asl maqsaddan chalg'ituvchi moddiy olamning jilvasi.

*Zulf* – yorning sehvlovchi sochi, kokili, dunyoga asir qiluvchi havaslar; istilohiy mazmunda ilohiy sir, yashirin haqiqat. Mumtoz she'riyatida, odatda, kashf etilmagan ilohiy sirlarni, dunyoning rango rang jalvalanishini aks ettiradi. Oshiq yoki solik dunyo gunogunligiga chalg'imasa, nafs qutqularidan uzilish orqaligina manzilga yetib borishi mumkin.

*Chirmosh etmoq* – chigallashtirmoq, chalkashtirmoq, bog'lab tashlamoq.

*Ey ko'ngul, men tarki ishq ettim, vale fosh etmagil,*

*Men senga sirrim dedim, sen elni sirdosh etmagil. [370-bet]*

Navoiy ijodidagi nazm ham nasrni umumiy bir planda bog'lab turuvchi ham mavzu, ham g'oya, ham obraz bu Ko'ngul hisoblanadi. Tasavvufiy mavzudagi asarlarda tark bilan bog'liq tushunchalar mavjud. Tark – dunyo ne'matlarini (umrni, suv va havoni, oilani,

mehrni va hakoazolarni) tark etish emas, balki nafsning illatlarini, havolangan dunyoning havoyi havaslarini tark etishdir. Lirik qahramon ishqni tark etganligini da'vo qilmoqda va buni u aynan ko'ngulga aytishining ham bir boisi mavjud, ya'ni ko'ngulga ishonch yo'q, zero unda sirni tilga chiqarib qo'yish xavfi bor, agar shu voqelik yuz bersa til butun dunyoga oshkor qiladi, shu maqsadda ishq sirrini oshiq jon harimida saqlash maqsadida kongulni chalg'itmoqda. El sirdosh bo'lolmaydi, chunki u fosh qiluvchi maqomidadir. Murojatda oshiqning ichki holatidagi kechinmalarning keskinligini ham ifodalashga xizmat qilmoqda. Men – lirik qahramon, ya'ni oshiq el (boshqalar) bilan qarshilantirish qilinib, sir va fosh orqali tazod qilingan, shuningdek ishtiyoq san'atidan ham unumli foydalanilgan.

*Ey ko'z, emdi ayladim har chehradin qat'i nazar,*

*Qil tahammul dog'i atrofimni qon yosh etmagil.*

Ikkinchi bayt matla'ning mantiqiy davomi bo'lib, endi jism a'zosi bo'lmish Ko'zga murojaat qilish orqali nafaqat nido san'ati, balki, tashxis san'ati orqali oshiqning ichki intizomini ham ko'rsatib o'tadi. Ko'z – insondagi eng go'zal yaratilgan bo'lib, unda ko'ngil ham oshiq ham gavdalanadi. Ko'zga og'ir bir sinovli shartlardan biri, har chehraga qaramaslik qo'yildi (vaholanki ko'zning vazifasi qaramoq, ko'rish, nazar solmoqdir), bunday ayriliqdan u qonli yosh bilan oshiq atrofini to'ldirishi mubolag'aning g'uluv darajasi bilan ifoda etilmoqda. Bu misralarda tazod topildiq darajasiga yetkazilganki, go'zal chehraga boqish zavq bo'lsa, qon yosh to'kmoq azoblanishni bildiradi. Yana naqshbandiylikda nazarni qadamdan uzmaslik tamoyili ham mavjud, ya'ni dunyoviy go'zalliklarga oshiqlik haqiqiy maqsaddan chalg'itishi mumkin.

*Soqiyo, qo'y dum oyog'ing'a sirishkim la'lini,*

*Lutf etib, bu mayg'a jomi hajr podosh etmagil.*

*Soqiy* – lug'aviy ma'noda may tarqatuvchi, istilohiy mazmunda esa murshid, piri komil. Ilohiy fayz – ishq sharobini oshiq qalbiga quyuvchi.

*Podosh* – mukofot, evaz. Istilohiy mazmunda bajarilgan ishga yarasha beriladigan javob. *Lutf va podosh* so'zlari vositasida zidlanish yuzaga chiqqan.

*Sirishk* – lug'aviy ma'noda ko'z yoshi bo'lsa, istilohiy mazmunda oshiq dardining, iztirobiy moddiy ko'rinishi; oshiqning borlig'i, samimiyati. *Sirishkim la'li* orqali shoir tashbih san'atini yuzaga chiqargan, soqiyga eng qimmatbaho boyligini tortiq qilmoqda.

*La'l* – qimmatbaho qizil rangli tosh, istilohiy ma'nida esa *sirishkim la'li*, deb birikma holida kelib, oshiq to'kayotgan ko'zyoshi qimmatbaho, pokligiga ishora qilingan.

*May* – lug'aviy ma'nida mast qiluvchi ichimlikning bir navi bo'lsa, istilohiy mazmunda ilohiy ishq, Ilohiy ma'rifat, omonatga bo'lgan muhabbat, ilmdan sarmastlik kabi ma'nolarni talqin qilishda ishlatiladigan timsoliy bir obraz.

*Jom* – lug'aviy mazmunda may quyiladigan idish bo'lsa, istilohiy jihatdan ko'ngil ma'nisida ishlatiladi. Baytda *Jomi hajr* so'z birikmasi ayriliq azobini mubolag'ali tarzda aks ettirmoqda.

*Lutf* – lugʻaviy mazmunda marhamat, mehribonlik kabilarni bildiradi, istilohiy maʼnida esa Haqning bandasiga koʻrsatadigan inoyati – ayblarini tagʻyir qilish asnosida, vasl – maqsad uchun eshiklarni ochib qoʻyishidir.

Baytda *soqiy, may, jom* soʻzlari bir-biri bilan aloqador boʻlib, tanosub sanʼati vositasida baytning bir butunligi, yaʼni yaxlitligi taʼminlangan. Bu tahlil va talqinlardan shunday xulosa qilishimiz mumkinki, bu bayt gʻazalning mantiqiy choʻqqisi hisoblanadi. Baytda har bir soʻz bitta emas, bir necha vazifani bajargan.

*Rishtai mehr uzdim, ey mashshota, zulfi qissasin,  
Koʻp uzatib, notavon koʻnglumga chirmosh etmagil.*

Bu baytda ham shoir badiiy tasvir vositalaridan mahorat bilan foydalangan. Koʻngil zanjirlanuvchi obraz boʻlib kelib, tashxisni yuzaga chiqarmoqda. *Mashshota, zulf, uzatmoq, chirmashmoq* kabi soʻzlar vositasida tanosub sanʼatidan foydalanib, baytda mantiqiy bogʻliqlikni amalga oshirgan. *Rishtai mehr*, yaʼni istiora orqali muhabbat koʻzga koʻrinmaydigan ipga oʻxshatilgan.

*Gar desang qadding boʻlub xam, qolmagʻaysan fitnagʻa,  
Koʻz solib husnigʻa, mayli ul koʻz-u qosh etmagil.*

*Xam* – egilgan, kamon shakliga kelgan; qadning xam boʻlishi ikki sababdan boʻladi, biri qarilikdan, biri oshiqning ishq dardidan bukilishi. *Qadding boʻlub xam* jumlasida goʻzal bir majoziylik aks etgan boʻlib, maʼnaviy kamolot yoʻlida fitnalarga qolmaslik uchun nafsning vasvasalariga uchmaslik zarurligi nazarda turilgan.

*Fitna* – gʻalayon, aldov, yoʻldan uruvchi goʻzallik, joziba manbai.

*Koʻz-u qosh* – mahbubaning maftunkor koʻz va qoshlari, dunyoviy goʻzallikning ramzi.

*Husn* – goʻzallik, yaxshilik, mukammallilik, ijobiy holat; istilohiy maʼnida Allohning jamoli, mukammalligi, Haq goʻzalligining zarrada aks etishi.

*Hajr toshin yogʻdurubkim qavdi, oʻlsam, ey rafiq,  
Qabrim ustida toʻkar toshing juz ul tosh etmagil.*

Mumtoz sheʼriyatda tuproq obrazi bilan birga *tosh* obrazi ham keladi. Baytda tosh soʻzi 3 oʻrinda takrir boʻlib ishlatilgan boʻlsa, bayt mubolagʻa asosiga qurilgan. *Hajr toshi* jumlasida lirik qahramonning dardi naqadar ogʻir ekanligini sifatlab tashbih qilgan. *Rafiqqa* – sirdoshiga murojaati orqali, xuddi, vasiyat qilayotgandek tasavvur uygʻotadi. Nasriy bayoni: Ey sirdoshim, hajr toshlarini ustimga yogʻdirib quvdi, agarko oʻlsam, shu toshlardan qabrim ustiga toʻkkil, boshqa tosh toʻkib yurmagil, qabrimni yor otgan toshlar bilan bezagin. Demak, lirik qahramon yorning jabriga ham oshiq, sevgisida sadoqatli, toshdek matonatli va chidamli. Shuningdek, *oʻlmoq* soʻzining tasavvufiy mohiyati ham mavjudki, nafsning illatlarini yoʻqotish orqali maʼnaviy yuksalish amalga oshiriladi.

*Ey Navoiy, faqr yoʻlinda yer oʻpkil har qadam,  
Yaʼni ul yoʻlda, qadam sayr ichra juz bosh etmagil.*

Maqta'da yuqorida aytilgan fikrlar – ishq siri, ko'zni tiyish, dunyodan uzilish kabilar umumlashtirilib, g'azal matnidagi badiiy ifodalar, ta'limiy-tasavvufiy g'oyalar mukammal bir darajaga ko'tariladi.

*Faqr yo'li* – istilohiy ma'nida esa tasavvufdagi eng oliy maqomlardan biri bo'lib, kamtarinlik, tuproqlik, nafs kamoloti kabilarni bildiradi.

*Yer o'pmoq* – ta'zim qilmoq, sajda qilmoq; istilohiy ma'noda tavozi', taqvo kabilarni ifodalaydi, ya'ni tuproq kabi bo'lmoq.

*Qadam sayr ichra* – nashqbandiylikdagi bir tamoyil bo'lib, hamisha ma'naviy yuksalish, qadamdan boxabar bo'lish kabilarni bildiradi. Faqr yo'lini yurib o'tish uchun nafsning kibrini, manmanligini yo'qotish asosiy shartlardan biri bo'lib, har qadamdan ogohlikni talab etadi. Ma'naviy sayru suluk bo'lganligi uchun shoir bu yo'lni bosh bilan yurib o'tish lozimligini ta'kidlamogda. Ya'ni, har bir qadam sajda kabi bo'lsin. G'azal matla'sidagi tarkning asl ma'nisiga endi keldik. Ya'ni, Oshiq nafsning dunyo moli bilan bog'liq bo'lgan ishqini tark etish orqali muqaddas yo'lga kirib bordi. Maqta'da ham tazod (qadam va bosh), husni ta'lil faqr yo'lida yurish adablari go'zal tarzda izohlangan, nido orqali esa shaxsiyatning qat'yiligi, matlabning aniqligi ta'kidlangan.

**Xulosa.** Navoiy lirikasida ishq tushunchasi ikki bosqichli yaxlit tizimni tashkil etadi. *Ishqi majoziy* (insoniy, dunyoviy sevgi) — borliq go'zalligini his qilish orqali qalbni poklovchi va tarbiyalovchi vosita bo'lsa, *ishqi haqiqiy* – Inson ruhining o'z asliga, ya'ni Haqqa intilishidan iborat oliy maqsaddir. Majoziy ishq haqiqiy ishqqa olib boruvchi zaruriy ko'prik vazifasini o'taydi.

Navoiy she'riyatining umrboqiyiligi undagi badiiy tasvir vositalari (tashbeh, istiora, tajnis, talmeh, tashxis) va shakliy unsurlarning (vazn, qofiya, radif) ichki mazmun bilan uzviy muvozanatda ekanligi bilan izohlanadi. She'riy san'atlar shunchaki bezak emas, balki qalb iztiroblari va falsafiy g'oyalarni kitobxon shuuriga yetkazuvchi asosiy estetik vositadir. Navoiy ishqiy lirikasida alohida bir jihat – hijron motivining ajralib turishidir. Bunda shoir hijron orqali lirik qahramonning ma'naviy jihatdan yuksalib borishini, yetakchi obraz sifatida o'quvchida ichki jo'shqinlik, ruhiy olamda baxtilik kayfiyatini, bu kayfiyatning matn tarkibida turli xil obrazli ifodalar bilan mubolag'ali tasvirlarini bera olgan.

Shoir ishq mavzusini badiiy talqin qilishda an'anaviy obrazlar – oshiq (lirik qahramon), yor, ag'yor, ramziy detallar – hajr va visol, ko'z va qosh, zulf va xol, rang obrazlardan ham unumli foydalangan. Shoir ishqni inson nafsida illatlardan tozalovchi, ruh kamolotiga erishtiruvchi asosiy omil sifatida ifodalaydi. Badiiy tahlil va talqinlar shuni ko'rsatadiki, shoir tilning lisoniy, fonologik imkoniyatlaridan ham unumli foydalangan, bu, ayniqsa, she'riy san'atlarning ishlatilishida yaqqol namoyon bo'ladi. Musiqiylik va ta'sirchanlikni ta'minlashda so'zlarning, unli va undosh tovushlarning takrorlanishi, qofiya va radiflarning qo'llanilishini takomillashtirdi, deyish mumkin. Yetuklik timsoli

hisoblangan soqiy, rind obrazlari bilan bir qatorda tazodlanishni hosil qiluvchi shoh va gado, oshiq va zohid obrazlar ham muhim poetik vazifa bajargan.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami. 3-jild. Toshkent: “G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi”. 2013. – B.764.
2. Hojiahmedov A. Mumtoz badiiyat malohati. Toshkent: “Sharq”. 1999. – B.240.
3. Hojiahmedov A. Navoiy aruzi nafasati. Toshkent: “Fan”. 2006. – B.288.
4. Hojiahmedov A. O‘zbek aruzi lug‘ati. Toshkent: “Sharq”. 1998. – B.224.
5. Is‘hoqov Yo. Navoiy poetikasi (“Xazoyin ul-maoniy” asosida). Toshkent: “Fan”. 1983. – B.167.
6. Is‘hoqov Yo. So‘z san‘ati so‘zligi. Toshkent: “O‘zbekiston”. 2014. – B.320.
7. Qayumov A. Dilkusho takrorlar va ruhafzo ash‘orlar. Toshkent: “Sharq”. 2014. – B.272.
8. Berdak Yusuf. Mumtoz adabiy asarlar lug‘ati. Toshkent: “Sharq”. 2010. – B.528.
9. Lapasov J. Mumtoz adabiy asarlar o‘quv lug‘ati. Toshkent: “O‘qituvchi”. 1994. – B.272.
10. Ataniyazova M. Mumtoz adabiyot istilohlari qisqacha izohli lug‘ati. Nukus: “Ilimpaz”. 2021. – B.100.

